



## MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA O'XSHATISHLARNING LINGVISTIK TALQINI

*Termiz davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti  
kafedrasida o'qituvchisi Toshqulova Zebiniso*

*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi*

*I bosqich talabasi Abdiyeva Mehriniso*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Muhammad Yusufning hayoti, uning she'riyati, she'riyatida qo'llagan o'xshatishlari to'g'risida ma'lumot beriladi. Ta'kidlash lozimki, Muhammad Yusuf she'rlari bizni vatanni sevishtga, uni qadrlashga, insoniy tuyg'ularimizni oshirishga yordam beradi. Endi biz adibning she'riyatidagi, uning ijodidagi o'xshatishlar haqida gaplashamiz.*

**Kalit so'zlar:** *Muhammad Yusuf hayoti, she'rlari (ijodiyoti), o'xshatishlar, o'xshatishlarning talqini.*

### **Tashkulova Zebiniso**

*teacher of the Uzbek language and literature department of the Faculty of Philology  
of the Termiz State Pedagogical Institute and the Uzbek language and literature  
department*

### **Abdiyeva Mehriniso**

*a student of the first stage*

**Abstract:** *This article provides information about Muhammad Yusuf's life, his poetry, and similes used in his poetry. It should be noted that Muhammad Yusuf's poems help us to love our homeland, to appreciate it, and to increase our human feelings. Now we will talk about similes in the poet's poetry and his work.*

**Key words:** *Muhammad Yusuf's life, poems (creativity), similes, interpretation of similes.*

### **Ташкулова Зебинисо**

*преподаватель кафедры узбекского языка и литературы филологического  
факультета Термезского государственного педагогического института и  
кафедры узбекского языка и литературы*

### **Абдиева Мехринисо**

*студентка первого этапа*

**Аннотация:** *В этой статье представлена информация о жизни Мухаммада Юсуфа, его поэзии, а также сравнениях, использованных в его поэзии. Следует отметить, что стихи Мухаммада Юсуфа помогают нам любить свою Родину,*



ценить ее, приумножать свои человеческие чувства. Сейчас мы поговорим о сравнениях в поэзии поэта и его творчестве.

**Ключевые слова:** жизнь Мухаммада Юсуфа, стихи (творчество), сравнения, интерпретация сравнений.

*Men dunyoni nima qildim,  
O`zing yorug` jahonim,  
O`zim xoqon,  
O`zim sulton,  
Sen taxti Sulaymonim,  
Yolg`izim, Yagonam deymi,  
Toppingan koshonam deymi,  
O`zing mening ulug`lardan  
Ulug`imsan, Vatanim...*

Bu she'rlarni, bu satrlarni bilmagan, yodlamagan kim bor deysiz? Fahmi o'jizimcha, bu satrlarni bilmagan, uni butun vujudi bilan o'qib qalbiga jo qilmagan kitobxon bo'lmasa kerak. O'zini o'zbek deb bilgan inson borki, bu satrlarni yod olgan. Ha bu ijodkor o'sha siz bilgan o'z she'rlari bilan sizning butun qalbingizni va yuragingizni zabt etgan, o'sha qalami o'tkir shoir Muhammad Yusufdir.

Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Qovunchi qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. O'rta maktabni tugatgach, Respublika Rus tili va adabiyoti institutida o'qib, uni 1978-yilda bitirdi. Shoir 1978-1980-yillarda Kitobsevarlar respublika jamiyatida, 1980-1986-yillarda "Toshkent oqshomi" gazetasida, 1986-1992-yillarda G.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyatida, 1992-1995-yillarda "O'zbekiston ovozi" gazetasida, O'zbekiston Axborot agentligida ishladi, 1995-1996 yillarda davlat va jamiyat qurilish akademiyasida o'qidi. 1997-yildan boshlab O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi raisi o'rinbosari lavoshmida ishladi.

Muhammad Yusuf O'zbekistondagi eng yosh xalq shoiri (1998) hisoblanadi. Kitoblari va she'rlari: "Tanish teraklar" (1985, birinchi to'plami), "Bulbulga bir gapim bor" (1987), "Iltijo" (1988), "Uyqudagi qiz" (1989), "Halima enam allalari" (1989), "Ishq kemasi" (1990), "Ko'nglimda bir yor" (1990), "Bevafo ko'p ekan" (1991), "Erka kiyik" (1992), "Osmonimga olib ketaman", "Kumush", "Kokilingni kim kesdi", "Aldov", "Turkman qiz", "Yur, Muhabbat, ketdik bu yerdan", "Yolg'onchi yor", "Qora quyosh" (doston) va boshqalar.

Shoir lirikasida hech kim tasavvur qilmagan lekin mos keladigan tashbehlarni, o'xshatishlarni ko'ramiz. Bunday o'xshatishlar boshqa hech bir ijodkor she'riyatida uchramasligini shoir asarlarning o'ziga xos badiiy tili deyishimiz mumkin. Masalan, Vatan haqida yozgan shoirlarning hech biri hali vatanni onaga, singilga o'xshatgan emas. Vatanning bog'-rog'larini, so'lim go'shalarini tarannum etganlar ko'pdir. Lekin





hech kimvatanni *“yuragimning olampanohi”* deb kuylagan emasdir. Mana shu kabi tashbehlarni Muhammad Yusuf she'riyatidagina ko'rishimiz mumkin. Muhammad Yusuf vatan timsolini, unga bo'lgan muhabbatni onasi, singlisi timsolida ko'radi. Ona, singil qanchalar suyukli, mehribon inson ekanligini bilamiz, albatta, shoir ham vatanini mana shu aziz insonlaridek suyadi, yaxshi ko'radi va uni qadrlaydi. Ona, eng buyuk insonimiz, mana shu yorug' olamga kelganimizda ilk bor biz ko'rgan o'sha nur yuzli va tabassumli inson. Onani tasvirlashga, uning mehrini ta'kidlashga ba'zan qalam ojizlik qiladi. Shoir mana shunday zotni, vatanga qiyoslayapti, unga o'xshatyapti. Vatanga ham bundan ortiq ta'rif bo'lmasa kerak.

*“Xavotir” she'rida shoir*

*Qo'rqaman, ertaga men o'lib ketsam,  
Yotar bo'lsam qumga botib ko'zlarim,  
Ko'nglimni ko'chkiday bosadi bir g'am –  
Yig'lashni ham bilmas mening qizlarim...*

O'z she'rlarida shoir yuqorida keltirib o'tgan shunday fikrlarni ta'kidlagan edi. Ya'ni shoir *“ko'nglimni ko'chkiday bosadi bir g'am”* satrlarni keltirib o'tgan. Xo'sh, shoirning qanday dardi borki, uning ko'nglini ko'chki misol bossa? Shoirning dardi, u o'lganidan so'ng qizlarining ahvoli, ularning hayoti. Qizlari hali hayotni ko'rmagan, uning tashvishlarini yo bo'lmasa lazzatini totib ko'rmagan yosh qizlar. Ular shu qadar yoshki, hatto otasi o'lganda yig'lashni ham bilmaydi, shu darajada yosh. Shoirning ko'nglini bosgan g'am o'zidan keyin qizlarining taqdiridir. Albatta, shoir she'riyatida shunga o'xshash o'xshatishlar talaygina. Bularning har birini ta'kidlashga esa, qalam ojizlik qiladi.

Bunga yana bir misol esa Muhammad Yusufning *“Sevgi bamisoli”* she'ridir. Mana o'sha she'r:

*Sevgi bamisoli lolaqizg'aldoq,  
Teginmay bo'lmaydi, Tegsang to'kilar.  
Alvon bir gumbazning o'rtasi oppoq...  
Buni bir men-u bir kapalak bilar.*

Aytingchi, sevgi, muhabbat deya yonmagan qalb bormi? Biz hayotimiz davomida muhabbatga chambarchas bo'g'liqimiz. Yana shoirning ushbu lirikasidagi o'xshatishlarga chuqurroq e'tibor beredigan bo'sak, sevgini lolaqizg'aldoqqa o'xshatishiga guvoh bo'lamiz. Nega aynan lolaqizg'aldoq? Tabiatan bu gulning tashqi ko'rinishiga e'tibor bersak, bu gulning bag'ri qora. Ko'plab adabiyot vakillari insonning mashaqqatlari, yoki hijron azobida qiynalishlarida *“bag'ri qonlik”* sifatini keltirish bilan izohlashadi. shunday ekan sevgi insonni har ko'yga soluvchi, uni otashin o'tga soluvchi hisdir. Buni nafaqat insonga bo'lgan muhabbatda, balki Allohga, Vatanga, onaga bo'lgan muhabbatda ham ko'rishimiz mumkin. Zero, Nodirabegim ta'kidlaganidek,

*Muhabbatsiz kishi odam emasdur.  
Gar odamsen muhabbat ixtiyor et.*



O'zini odam deb bilgan inson borki unda muhabbat bor, sevgi bor, qalb bor. Shoir Muhammad Yusuf bu she'rida sevgini lolaqizg'aldoqqa o'xshatadi. Bilamizki lolaqizg'aldoq juda chiroyli, ammo o'ta nimjondir. Qo'lingizga olishingiz bilan buni sezasiz, chunki u, uning barglari to'kiladi. Shoir ham sevgini lolaqizg'aldoqqa o'xshatib "teginmay bo'lmaydi, tegsang to'kilar" deb ta'kidlaydi. Sevgiga, muhabbat va ishqqa ham teginmay, ya'ni ko'chasidan o'tmay bo'lmaydi, tegsang, ya'niki o'sha ko'chalardan o'tsang, yuraging yonmasdan, muhabbatning sinovlariga va qiyinchiliklariga bardosh bermasdan chiqib ketolmaysan. Teginmay desang, yurak qo'ymaydi, teginay desang uning qiyinchiliklariga bardosh berishing kerak. Buni nomini sevgi, ishq, muhabbat deb qo'yibdilar.

Bunga o'xshash shoirning she'rlari, she'rlaridagi o'xshatishlari talaygina. Buning barchasini yozishga esa, qalam o'zlik qiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Muhammad Yusuf haqiqatdan ham o'ta iste'dodli, she'rlari bilan har bir insonning qalbiga kira oladigan va uni zabt etadigan shoirdir. Uning ijodiyotidagi she'rlari, she'rlaridagi o'xshatishlar har bir Muhammad Yusufni tanigan, boringki tanimagan kitobxon uchun she'rni bir o'qishda tushuntiradigan usulda qo'llangan. Muhammad Yusuf she'rlari bilan insonga notanish bo'lgan tuyg'ular va hislarni bermoqchi edi va u o'z maqsadiga yetgan desak adashmagan bo'lamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boboyorov O', Xolsaidov F. Adabiyot. - Toshkent: Ilm ziyo, 2006. - B.7.
2. Haqqul I. Mushohada yog'dusi. - Toshkent: Fan, 2009. - B. 26.
3. Yusuf M. Saylanma. - Toshkent: Sharq, 2005. - B. 273.
4. Ahmad S. Yo'qotganlarim va topganlarim. - Toshkent, 2000. - B. 67.
5. Yusuf M. Saylanma. - Toshkent: Sharq, 2005. - B. 12. 11 .Boltaboyev. So'z sehri. - Toshkent, 2006. - B. 98.
6. Yusuf M. Ulug'imsan Vatanim. - Toshkent: O'zbekiston, 2010. - B. 9.
7. Yusuf M. Saylanma. - Toshkent: Sharq, 2005. - B. 275.
8. Musurmonkulov, A. (2023). CORRELATION OF LEXICAL-SEMANTIC RELATIONS WITH GRADUONYMY. Science and innovation, 2(C10), 168-170.
9. Musurmonqulov, A. (2023). AN ALGORITHM FOR RANKING VERBS AND TAGGING THEM IN THE CORPUS. International journal of advanced research in education, technology and management, 2(5).
10. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO'Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. Scientific Impulse, 1(4), 34-37.